

Toshloq tumani xokimi va uning o'rinbosarlarini jismoniy shaxslarni va yuridik shaxslar vakillarini shaxsiy qabul qilish GRAFIGI

| F.I.Sh. | Hafta kunlari | Tashkilot pochta manzili |
|--|---|---|
| Lavozimi | Vaqti | |
| Abdusalomov Shuhrat Tolibovich Toshloq tumani hokimi | Seshanba kuni 8:00 dan 11:00 gacha | Toshloq shaxarchasi A.Navoiy ko'chasi 32 uy |
| Xusainov Yusufjon Akbaralievich Toshloq tumani hokimining iqtisodiyot va tadbirkorlik masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari | Dushanba kuni 8:00 dan 11:00 gacha | Toshloq shaxarchasi A.Navoiy ko'chasi 32 uy |
| Najmiddinov Iqboljon Ibragimovich Toshloq tumani hokimining sanoatni rivojlantirish, kapital qurilish, kommunikatsiyalar va kommunal xo'jalik bo'yicha o'rinbosari | Payshanba kuni 8:00 dan 11:00 gacha | Toshloq shaxarchasi A.Navoiy ko'chasi 32 uy |
| Isaboev Sherzod Maxmudovich Toshloq tumani hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari | Juma kuni 8:00 dan 11:00 gacha | Toshloq shaxarchasi A.Navoiy ko'chasi 32 uy |
| Kavlonova Komilaxon Anvarovna Toshloq tumani hokimi o'rinbosari, Xotin-qizlar qo'mitasi raisi | Chorshanba va shanba kunlari 8:00 dan 11:00 gacha | Toshloq shaxarchasi A.Navoiy ko'chasi 32 uy |

Toshloq tuman hokimligining rasmiy web sayti www.toshloq.uz

Toshloq tuman hokimligi manzili: Farg'ona viloyati, Toshloq shaharchasi A.Navoiy ko'chasi 32 uy.

150500 Ishonch telefoni: 0 (373) 238-56-39

Elektron pochta: info@toshloq.uz

E-xat pochta: toshloq.t@exat.uz

1. Tuman tashkil topganligi haqida ma'lumot

Tuman 1973 yili tashkil topgan. Tuman markazi - Toshloq qishlog'i.

2. Tuman joylashganligi haqida ma'lumot.

Tuman Farg'ona viloyatining shimoliy-sharqida joylashgan bo'lib, Yozyovon, Quva, Oxunbobev tumanlari hamda Farg'ona va Marg'ilon shaharlari bilan chegaradosh. Umumiy yer maydoni 240 kv.km ni tashkil etadi.

3. Aholi haqida ma'lumot.

Tumanning 96 ta aholi yashash bo'limlarida 154,4 ming kishi istiqomat qiladi, shundan shaharda 40,3 ming kishi (26,1%) ni, qishloqda 114,1 ming kishi (73,9%) ni tashkil qiladi. Aholini 93,2% ni o'zbeklar, 0,7% ni tojiklar, 4,6% ni qirg'izlar va boshqa millat vakillari tashkil etadi.

4. Qo'shma korxonalar va sanoat korxonalar soni.

Tumanda 3 ta yirik sanoat korxonasi "Toshloq paxta tozalash" AJ, "VODIY TOSHLOQ TEXTILE" DK va "DEU Tekstayl kompani" chet el korxonasi faoliyat yuritmoqda. Bu korxonalarda paxta tolasi, gazlamalar va b.

Ishlab chiqarilmoqda.

Bundan tashqari 3 ta qo`shma korxonalar: O`zbek - Rossiya "Merfen KO" QK, "DEU Tekstayl kompani" QK, O`zbek - Koreya "Sta sam yang plastik Ko" QK lari mavjud.

5. Yangi yaratilgan ishchi o`rinlar.

Tumanda yangi yaratilgan ishchi o`rinlar soni - 2406.

6. Kichik biznes sub'ektlari va fermer xo`jaliklari.

Kichik biznes sub'ektlarining umumiy soni 1857 ta, shundan 1165 tasi fermer xo`jaliklari (har bir fermer xo`jaligi uchun o`rtacha yer maydoni 22,3 ga).

7. Bilim yurtlari va sog`liqni saqlash ob'ektlari.

Tumanda 29105 ta o`quvchiga mo`ljallangan 48 ta o`rta umumta'lim maktablari, 4051 ta talabaga mo`ljallangan 5 kasb-hunar kollejlari mavjud.

Bundan tashqari tumanda 499 ta bemorga mo`ljallangan 7 ta kasalxonalar, 22 ta shifoxona va 18 qishloq vrachlik bo`limlari faoliyat yuritmoqda.

2017-06-17 14:13:38